

“TASDIQLAYMAN”

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim,
fan va innovatsiyalar vaziri v.v.b.**

 **Sh. Daliev**

2025-yil “ ____ ”-yanvar

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligida 2024-yil uchun korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi haqida

UMUMIY HISOBOT

I. Vazirlikda Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi bajarilgani to‘g‘risida umumiy axborot.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va Qarorlarida belgilangan vazifalar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish Milliy kengashi topshiriqlari ijrosi yuzasidan hisobot davrida vazirlikda tizimli ishlar olib borilgan.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 5-iyundagi PQ-210-son Qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 13-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi PQ-210-son qarori ijrosini ta’minlash to‘g‘risida”gi 210-son buyrug‘i imzolangan.

Ushbu buyruq ilovalari bilan “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 5-iyundagi PQ-210-son qarorida belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlash yuzasidan nazorat-reja” va “O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida” 2024-yil 5-iyundagi O‘RQ-931-son Qonunini amalga oshirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan tasdiqlangan tadbirlar rejasida belgilangan vazifalarning ijrosini amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini” tasdiqlib, ijroga qaratilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 21-iyundagi PQ-228-son Qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida, vazirlikning 2024-yil 3-iyuldagi 03-23-143-son “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 21-iyundagi PQ-228-son qarorida belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlash yuzasidan nazorat-reja”si tasdiqlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Huquqni muhofaza qilish akademiyasi hamda vazirlik tomonidan oliy ta’lim hamda kasbiy ta’lim muassasalari talaba-o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan maxsus dastur ishlab chiqilgan.

Shuningdek, Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tomonidan ishlab chiqilgan “Korrupsiyaga hamda jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish sohasida elektron ma’lumotlar bazasini yuritish tartibini tasdiqlash haqida”gi buyrug‘i loyihasi vazirlik tomonidan o‘rganib chiqilgan va loyiha yuzasidan fikr hamda mulohazalar berilgan.

Bundan tashqari, vazirlik tizimidagi xodimlarning “Virtual akademiya”da korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida malakasini oshirib borishlarini ta’mirlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining qarori bilan tasdiqlangan “Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi” elektron platformasida o‘qitishni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi Nizomi talablariga muvofiq, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2024-yil 1-dekabrda 02-07/6627-son xatiga muvofiq, shartnomalarni rasmiylashtirishni tashkillashtirish yuzasidan tegishli ishlar amalga oshirilgan.

Yuqoridagilar bilan birga, 2024-yil 1-21 dekabr kunlari vazirlik tizimidagi 5000 dan ortiq xodimlar Huquqni muhofaza qilish akademiyasining edu.proakademy.uz elektron o‘quv platformasi orqali “Manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini aniqlash, ularni bartaraf etish hamda oldini olish” mavzusidagi (10 soatlik) masofaviy o‘quv kursida o‘qitilgan.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-noyabrda PF-200-son Farmoni bilan tasdiqlangan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2023/2024 yillarga mo‘ljallangan davlat dasturida vazirlikka yuklatilgan vazifalar ijrosi yuzasidan Chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan va ularning ijrosi to‘liq ta’minlangan.

Jumladan, dasturda oliy ta’lim muassasalari faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish belgilangan.

Mazkur topshiriqqa muvofiq, Oliy ta’lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilayotgan tadbirlarni monitoring qilish baholab borish bo‘yicha reyting baholash tizimi joriy etilgan. Xususan, HEMIS platformasi (<https://survey.hemis.uz>) orqali anonim so‘rovnoma o‘tkazilgan. So‘rovnoma natijasi umumlashtirilib, korrupsiyaviy holatlar kuzatilmasligi bo‘yicha davlat oliy ta’lim muassasalarining milliy reytingi shakllantirilgan hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha “yaxshi”, “qoniqarli” va “qoniqarsiz” darajasidagi davlat oliy ta’lim muassasalari aniqlangan.

Shuningdek, dasturda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida ilmiy, tanqiciy va ekspert salohiyatini kuchaytirish borasida chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilangan.

Mazkur topshiriqqa muvofiq, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan shakllantirilayotgan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasi bo'yicha milliy ekspertlar jamoasiga jalb qilinishi uchun oliy ta'lim muassasalari malakali mutaxassislaridan tuzilgan nomzodlarning ma'lumotlari Agentlikka taqdim qilingan. Milliy ekspertlar jamoasini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi malakasini oshirish maqsadida, 2024-yil 12-15-mart kunlari Toshkent shahar "CERT academy" xususiy korxonasi tomonidan tashkil etilgan "Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mutaxassislarning malakasini oshirish o'quv kursi"da Farg'ona davlat universitetining Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplayens-nazorat" tizimini boshqarish bo'limi boshlig'i A.Turaxanov qatnashib, mazkur o'quv kursining yakuni bo'yicha ISO 37001:2016 "Menejer/Korrupsiyaga qarshi kurashish boshqaruv tizimining ichki auditori" xalqaro standart sertifikatiga ega bo'lgan.

2024-yilning 29-30-may kunlari Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va GIZ Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati "Samarali Davlat boshqaruvi" dasturi tomonidan tashkil etilgan "Davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaning oldini olish va "komplayens-nazorat" tizimini samarali joriy etish" mavzusidagi o'quv-seminarida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi boshlig'i M.Parmanov ishtirok etib, sertifikatga ega bo'lgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi PQ-81-son qarori bilan tasdiqlangan "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tartibi to'g'risida"gi Nizom talablariga asosan vazirlik tomonidan har chorakda ma'lumotlar "E-Anticor.uz" elektron platforma orqali reyting baholash yo'nalishlari va indikator ko'rsatkichlari jadvalini to'ldirish yo'li bilan kiritib borilgan.

Vazirlikda korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va oldini olish, ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik hamda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, vazirlikning Komplayens nazorat tizimini joriy etish va korrupsiyaga qarshi kurashishni takomillashtirish to'g'risidagi 443-son buyrug'i bilan tartibga solingan.

Shuningdek, hisobot davrida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 11-maydagi PQ-240-son qaroriga muvofiq vazirlikning "Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Uslubiyoti" asosida vazirlik va uning tarkibiy tuzilmalari faoliyatini kompleks tahlil qilish orqali korrupsiyaviy xavf xatarlarni aniqlash va baholash ("E-anticor.uz" platformasi orqali) amalga oshirilgan.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi faoliyatini tartibga solish sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" 2024-yil 8-avgustdagi 489-son qarori 1-ilovasi 11-bandida vazirlik zimmasiga yuklangan asosiy vazifalarga muvofiq 125 ta funksiyani amalga oshirish belgilab qo'yilgan.

Shuningdek, “e-antikorrupsiya” ochiq platformaning “Korrupsiyaga moyil bo‘lgan munosabatlar reyestri” bo‘limida vazirlik tomonidan kiritilgan ma’lumotlar yuzasidan jamoatchilik tomonidan taklif va izohlar qoldirilmagan.

II. Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish.

Vazirlikda manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash, uning oldini olish va tartibga solishning tashkiliy-huquqiy asoslari “O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni asosida amalga oshiriladi.

Mazkur Qonunning ijrosini ta‘minlash maqsadida, vazirlikning 2024-yil 13-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi PQ-210-son qarori ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida”gi 210-son buyrug‘i imzolangan.

Unga ko‘ra, maxsus bo‘linma tomonidan 15-fevralga qadar ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi har yilgi deklaratsiyani tahlil qiladi hamda 1-martga qadar ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish bo‘yicha choralarning yetarliligini ta‘minlash uchun Odob-axloq komissiyasiga taklif kiritadi.

Shuningdek, “O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosi doirasida 2024-yilda amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan “Yo‘l xaritasi” ijrosini ta‘minlash bo‘yicha vazirlik nazorat-rejasining tegishli bandlariga asosan yaqin qarindoshlar bevosita bo‘ysunuvda yoki nazorat yo‘nalishidagi tashkilotlarda ishlayotgan holatlar, bo‘ysunuvda bo‘lgan tashkilot arda xodimlar o‘rindoshlik asosida ishlayotgan holatlar, ishdan bo‘shagan xodimning ikki yil ichida o‘z ish joyida bevosita nazoratida bo‘lgan tashkilotlarga ishga kirish holatlari, xodim o‘zi mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan tashkilotning nazoratida bo‘lgan tadbirkorlik faoliyati subyekting aksiyalariga yoki ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlariga egalik qilgan, shuningdek, ushbu tadbirkorlik subyektlarining boshqaruv organi a‘zosi bo‘lgan holatlarni aniqlash bo‘yicha tashkiliy ishlar amalga oshirilgan. Jumladan:

1. Davlat organlari va tashkilotlarida yaqin qarindoshlar bevosita bo‘ysunuvda yoki nazorat yo‘nalishidagi tashkilotlarda ishlayotgan holatlarni aniqlash vazifasi bo‘yicha, vazirlik tizimidagi ta‘lim muassasalari, markazlar va agentliklarda yaqin qarindoshlar bevosita bo‘ysunuvda yoki nazorat yo‘nalishidagi tashkilotlarda ishlayotgan xodimlar to‘g‘risida ma’lumotlar o‘rganilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 11-martdagi “O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan normativ hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” VMQ-133-son Qarorining 3-ilovasidagi davlat (aksionerlik) korxonalarining Mehnat kodeksida nazarda tutilgan qarindosh-urug‘larning, agar ularning xizmatlari ulardan birining boshqasiga bevosita bo‘ysunishi yoki nazorati ostida bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lsa, birga xizmat qilishlarini cheklash qoidalaridan barcha o‘quv va tarbiya muassasalaridagi pedagog xodimlar, o‘qituvchilar, bibliograflar va kutubxonachilar istisno etilishi belgilangan.

Shu sababli, ta'lim muassasalarida mehnat faoliyatini yuritayotgan pedagog xodimlar, o'qituvchilarning yaqin qarindoshlari bevosita bo'ysunuvda yoki nazorat yo'nalishidagi tashkilotlarda ishlayotgan holatlari inobatga olinmagan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, vazirlikda yaqin qarindoshlar bevosita bo'ysunuvda yoki nazorat yo'nalishidagi tashkilotlarda ishlayotgan xodimlar mavjud emasligi aniqlangan.

2. Davlat organlari va tashkilotlarida hamda ularning bo'ysunuvida bo'lgan tashkilotlarda xodimlar o'rindoshlik asosida ishlayotgan holatlarni aniqlash vazifasi bo'yicha, vazirlik tizimidagi ta'lim muassasalari, markazlar va agentliklarda o'rindoshlik asosida ishlayotgan xodimlar to'g'risida ma'lumotlar o'rganilgan.

O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi 113-moddasiga muvofiq, vazirlik tizimidagi ta'lim muassasalarida 2023/2024-o'quv yili uchun xodimlar bilan o'rindoshlik asosida muddatli mehnat shartnomalari tuzilganligi hamda mehnat shartnomalarining muddati 2024-yil 1-iyulda tugaganligi munosabati bilan o'rindoshlik asosida ishlayotgan xodimlar bilan mehnat shartnomalari bekor qilinganligi aniqlangan.

Shuningdek, vazirlik markaziy apparatida o'rindoshlik asosida faoliyat olib borayotgan xodimlar mavjud emasligi aniqlangan.

3. Davlat organlari va tashkilotlaridan ishdan bo'shagan xodimning ikki yil ichida o'z ish joyida bevosita nazoratida bo'lgan tashkilotlarga ishga kirish holatlarini aniqlash vazifasi bo'yicha, vazirlik markaziy apparatida so'ngi ikki yil ichida ishdan bo'shagan xodimlarning ma'lumotlari tahlil qilingan.

Tahlil natijasida, so'ngi ikki yil ichida 85 nafar xodim ishdan bo'shaganligi aniqlandi va ishdan bo'shagan xodimlar bevosita vazirlik nazoratida bo'lgan tashkilotlarga ishga kirish holatlari mavjud emasligi aniqlangan.

4. Xodim o'zi mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan davlat organi yoki boshqa tashkilotning nazoratida bo'lgan tadbirkorlik faoliyati subyekti ning aksiyalariga yoki ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlariga egalik qilgan, shuningdek, ushbu tadbirkorlik faoliyati subyektlarining boshqaruv organi a'zosi bo'lgan holatlarni aniqlash vazifasi bo'yicha, vazirlik markaziy apparatidagi o'z mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan xodimlarning tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi (shug'ullanmasligi) o'rganilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2024-yil 7-avgustdagi Taqdimnomasiga ko'ra, vazirlik hamda tizim tashkilotlari xodimlari tomonidan 22 ta tadbirkorlik subyektlarida ta'sischiilik asosida faoliyat yuritib kelayotganligi aniqlangan.

Ushbu holat yuzasidan, barcha tegishli xodimlarga O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonuni kuchga kirganiga qadar tadbirkorlik faoliyatini to'xtatish, bunday faoliyat bilan shug'ullanmaslik to'g'risida bir necha marotaba rasmiy va og'zaki ravishda ogohlantirilgan.

Hozirda, mazkur 22 nafar xodimlarning tadbirkorlik subyektlarida ta'rischilik asosida faoliyat yuritib kelayotganligi tahlil qilinib, quyidagilar aniqlandi.

Hozirgi kunda, 8 nafar xodim tadbirkorlik subyektini boshqa shaxslarga rasmiylashtirgan, 1 ta tadbirkorlik subyektining faoliyati tugatilgan, 6 ta subyekt faoliyat ko'rsatmaydi, 2 ta xodim bilan mehnat shartnomalari bekor qilingan va qolgan 5 ta xodim tomonidan tadbirkorlik subyektidagi ta'rischilik faoliyatini tugatish yuzasidan qonunchilikda belgilangan hujjatlar rasmiylashtirilmoqda.

5. Davlat organlari va tashkilotlari xodimlari tomonidan 2023-2024 yillarda manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha to'ldirilgan yillik deklaratsiyalarni tahlil qilish vazifasi bo'yicha, vazirlikning manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha tegishli ichki idoraviy hujjatga asosan xodimlar tomonidan 2023-2024 yillar davomida to'ldirilgan manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha deklaratsiyalardagi ma'lumotlar tahlil qilingan.

Jumladan, vazirlik markaziy apparati bo'yicha jami 169 ta xodim faoliyat olib borgan va ular tomonidan to'ldirilgan deklaratsiyalarda keltirilgan ma'lumotlarni tahlil qilish natijasida manfaatlar to'qnashuvi holatlari aniqlanmagan.

6. Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida xabar berish va ularni tartibga solish tizimi joriy etilmagan tashkilotlardagi holatlarni tahlil qilish vazifasi bo'yicha, vazirlikning 2021-yil 26-avgustdagi 373-son buyrug'i bilan vazirlik tizimida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risida Nizom tasdiqlangan.

Vazirlikning rasmiy veb-saytida (<https://gov.uz/edu>) fuqarolar, shu jumladan vazirlik tizimida faoliyat yuritayotgan pedagog-xodimlar, o'quvchi-talabalar, ularning ota-onalari (yaqin qarindoshlari) hamda chet el fuqarolari tomonidan turli masalalar yuzasidan murojaat qilishlari, shuningdek tizimda mavjud manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida xabar berishlari uchun qisqa raqamli ishonch telefoni (1006) va "Call-markaz" (71-230-64-64) to'g'risida ma'lumot joylashtirgan.

Shuningdek, veb-saytda vazirlikning murojaatlar hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limlari telefon raqamlari (55-520-08-08 (ichki 156; 282) joylashtirilgan.

Bundan tashqari, sohadagi korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar, shu jumladan manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq masalalar yuzasidan xabarlarni olish uchun vazirlik korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limining anticor@edu.uz elektron pochta faoliyati yo'lga qo'yilgan.

7. Davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari, odob-axloq komissiyalari tashkil etilganligi va faoliyati yo'lga qo'yilganligi tahlil qilinib, vazirlik markaziy apparati, hududiy boshqarmalari hamda tizimdagi davlat oliy ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari (mutaxassislari) va odob-axloq komissiyalari alohida tarzda tashkil etilganligi aniqlangan.

Vazirlikning 2023-yil 31-may kungi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va vazirlik tizim tashkilotlarida Odob-axloq va Ichki mehnat tartibi qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 235-sonli buyrug'i bilan "O'zbekiston

Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va vazirlik tizim tashkilotlarining Odob-axloq komissiyasi to'g'risidagi" Nizom tasdiqlangan.

8. 2023-yil davomida davlat organlari va tashkilotlariga jismoniy va yuridik shaxslardan manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha kelib tushgan murojaatlarni tahlil qilish vazifasi bo'yicha, tahlil o'tkazilib, quyidagilar aniqlangan:

2023-yil mobaynida jismoniy va yuridik shaxslardan vazirlikka kelib tushgan jami 13 715 ta murojaatlarning mazmuni tahlil qilinib, ulardan 94 tasida manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq bo'lgan masalalar keltirilganligi, ya'ni tizimdagi chator muassasalar rahbarlari hamda xodimlari faoliyatidan norozilik, shuningdek oraliq nazorat va yakuniy davlat attestatsiyasiga oid, davlat nomdor stipendiyalari, olimpiada va tanlovlar, qabul jarayonlari, ilmiy tadqiqot va moliyaviy masalalar hamda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida xabar berilganligi inobatga olinib, batafsil tahlil qilish uchun ajratib olingan.

Tahlil natijalariga ko'ra, kelib tushgan 94 ta murojaatning 88 tasidagi vajlar bevosita manfaatlar to'qnashuviga bog'liq emasligi aniqlangan.

2024-yil davomida davlat organlari va tashkilotlariga jismoniy va yuridik shaxslardan manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha kelib tushgan murojaatarni tahlil qilish vazifasi bo'yicha, tahlil o'tkazilgan va quyidagilar ma'lum bo'lgan:

2024-yil mobaynida jismoniy va yuridik shaxslardan vazirlikka kelib tushgan jami 13 284 ta murojaatlarning mazmuni tahlil qilinib, ulardan 94 tasida manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq bo'lgan masalalar keltirilganligi inobatga olinib, batafsil tahlil qilish uchun ajratib olingan.

Tahlil natijalariga ko'ra, kelib tushgan 99 ta murojaatning 91 tasidagi vajlar bevosita manfaatlar to'qnashuviga bog'liq emasligi, qolgan murojaatlarda esa manfaatlar to'qnashuvi bilan birga boshqa turli masalalar ham keltirilganligi aniqlangan. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonuni talablari asosida o'rganish natijasida, ushbu murojaatlardagi mavzuga oid vajlar o'z tasdig'ini topmaganligi ma'lum bo'lgan.

9. Davlat organlari va tashkilotlari xodimlari ish stolidan eslatma sifatida foydalanishi uchun manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq holatlar va bunday vaziyatlarda ko'riladigan choralar bo'yicha illyustrativ tarqatma materiallarni ishlab chiqish hamda tarqatish vazifasi yuzasidan vazirlik tomonidan manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq holatlar va bunday vaziyatlarda ko'riladigan choralar bo'yicha illyustrativ tarqatma material ishlab chiqilgan hamda xodimlarga tarqatildi.

Mazkur eslatmada, O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonunining tegishli bandlarida keltirilgan ma'lumotlar bo'yicha qisqa ma'lumot hamda QR-kodli ilovalar qayd etilgan.

III. Korrupsiyaga qarshi qoidalarni vazirlik shartnomalariga kiritish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Shartnomaviy munosabatlarni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 14-sentabrdagi PF-6313-son Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida vazirlikning xarid jarayonlari doirasida

shartnomaviy munosabatlarga kirishishni rejalashtirayotgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxslar bilan tuzilayotgan shartnomalarda majburiy ravishda korrupsiyaga qarshi qo‘shimcha shartlar belgilash tartibi yo‘lga qo‘yilgan.

Bundan tashqari, vazirlik va uning tarkibiy tuzilmalari xodimlari bilan tuziladigan mehnat shartnomasining namunaviy shakli tasdiqlangan. Shartnomada xodimlarga korrupsiyaga qarshi qo‘shimcha majburiyatlar ko‘rsatib o‘tilgan.

IV. Kontragentlarni tekshirish.

Vazirlikda kontragentlarni tekshirish vazirlikning 2024-yil 8-oktabrdagi 369-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida kontragentlarni tekshirishga oid yo‘riqnoma” talablari asosida amalga oshirilmoqda.

Jumladan, 2024-yil mobaynida 129 ta shartnomalar miqyosida kontragentlar o‘rganilgan va natijasi bo‘yicha tegishli hulosalar rasmiylashtirilib, shartnomalar imzolangan.

V. Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish.

Vazirlikning 2023-yil 21-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tanlov asosida ishga qabul qilish jarayonini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 372-son buyrug‘i imzolangan bo‘lib, mazkur buyruq bilan vazirlik nomenklaturasiga kiruvchi bo‘sh ish o‘rinlariga ishga qabul qilishni ochiq tanlov asosida amalga oshirish hamda tanlov doirasida o‘tkaziladigan sinov tadbirlarini Internet tarmog‘i orqali real vaqt rejimida kuzatishni nazarda tutuvchi tartib joriy etilgan.

Shuningdek, vazirlikdagi vakant lavozimlarga nomzodlar orasidan yetarli bilim va tajribaga ega, halol, puxta, xolis kadrlarni tanlov asosida saralab olish va ular bilan mehnat munosabatlarini rasmiylashtirish maqsadida, nomzodlarga nisbatan “Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha Yo‘riqnoma” talablari asosida tekshiruv amalga oshirilgan. Vazirlik rasmiy veb-saytida ishga qabul qilish, rotatsiya to‘g‘risidagi e‘lonlar va axborotlar doimiy ravishda berib borilgan.

Hisobot davri mobaynida 1636 nafar nomzodga nisbatan tekshiruv o‘tkazilgan. Tekshiruv natijalariga ko‘ra, 39 nafar nomzodlarning ishga olinishiga to‘sqinlik qiluvchi ma‘lumotlar aniqlanmagan va ular ishga qabul qilingan.

VI. Ta‘lim va kommunikatsiya.

Vazirlikda korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va oldini olish, ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti qoshidagi Ilmiy kengash tomonidan tasdiqlangan “O‘quv dastur”lar asosida amalga oshirilgan.

Shuningdek, vazirlik markaziy apparati, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar boshqarmalari, tizim tashkilotlari hamda oliy ta‘lim muassasalari boshqaruv xodimlari 2024-yilning iyul va avgust oylarida Adliya vazirligi hamda Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha

bilim va ko'nikmalarni baholash uchun o'tkazilgan onlayn test sinovlarida ishtirok etib, yaxshi natijalarni ko'rsatgan.

Vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish, buxgalteriya hisobi va hisoboti, ishlar boshqarmasi, axborot xizmati bo'limi vakillari, barcha davlat oliy ta'lim muassasalari hamda vazirlikning hududiy boshqarmalari mas'ul xodimlari ishtirokida, oliy ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida ishlarni manzilli va samarali tashkil etish chora-tadbirlariga bag'ishlangan seminarlar tashkil etilgan.

2024-yilning iyul oyida oliy ta'lim muassasalarining birinchi prorektorlari, bo'lim boshliqlari va xodimlari, dekan o'rinbosarlari hamda tyutorlar, jami 2 mingga yaqin ishtirokchilar bilan "Korrupsiyaga qarshi kurash" mavzusida respublika seminar o'tkazilgan.

Oliy ta'lim muassasalarida korrupsiyaning holati, tendensiyalari va sabablari, shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlari samaradorligini yanada oshirish yuzasidan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish sohasida quyidagilar bajarilgan.

Jumladan, "Xalqaro sertifikatlash tashkiloti" jurnalida (CERT International, ISO 37001:2016, 2024-yildagi 2-soni) Farg'ona davlat universiteti korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplayens-nazorat" tizimini boshqarish bo'limi boshlig'i A.Turaxanovning "Antikorrupsiyaviy menejment" mavzusidagi maqolasi chop etilgan. Jizzax politexnika institutining "Ijtimoiy fanlar" kafedrasida dotsenti X.Xicirov "O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashishning ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy jihatlari" mavzusida falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) i. miy darajasini qo'lga kiritgan. Farg'ona davlat universitetning filologiya fakulteti professorlari N.Sobirov va O.Akbarovlarning "Korrupsiya – illat" nomli monografiyasi nashr etilgan.

Mazkur sohadagi ishlar Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti, Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti, Guliston davlat pedagogika instituti va Namangan muhandislik-qurilish institutida ham amalga oshirilgan va davom ettirilmoqda.

Bundan tashqari, vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarda jami 36 ta, jumladan, vazirlikda 15 ta, Bilim va malakalarni baholash agentligida 5 ta, Oliy attestatsiya komissiyasida 7 ta hamda Innovatsion rivojlanish agentligida 9 ta axborot tizimlari ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan. Jumladan:

– oliygoh, akademik litsey, professional ta'lim va oliy ta'limdan keyingi ta'limga qabul jarayonlari raqamlashtirilib, my.edu.uz va my.uzbmb.uz axborot tizimlari joriy etilishi natijasida abituriyentlarning vaqtlarini tejash, xarajatlarini qisqartirish hamda ortiqcha byurokratik to'siqlarni oldini olishga erishilgan;

– "Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi" (HEMIS) joriy etilib, 35 turdagi statistik hisobotlar hamda guruh jurnallari, o'zlashtirish qaydnomalari, dars va imtihon jadvallari, diplom va akademik ma'lumotlar, talabalar va professor-o'qituvchilar to'g'risidagi ma'lumotlar raqamlashtirilgan;

– professional (prof.edu.uz) va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida (emis.edu.uz) ma’muriy jarayonlarini boshqarish axborot tizimlari joriy etilgan;

– talabalarga to‘lov shartnomalarni elektron shaklda berish, onlayn to‘lovlarni amalga oshirish hamda oliygohlar tomonidan to‘lovlar monitoringini yuritish bo‘yicha “EduBilling” axborot tizimi joriy etilgan;

– oliygohlararo yagona elektron kutubxona platformasi (unilibrary.uz) ishlab chiqilgan, talabalar va professor-o‘qituvchilarga barcha oliygohlardagi mavjud elektron adabiyotlardan onlayn foydalanish imkoniyati yaratilgan;

Ma’lumot uchun: platformaga 324 mingdan ortiq elektron resurslar joylashtirilgan, shundan 240 mingtasi adabiyotlar, 42 mingtasi maqolalar, 11 mingtasi monografiyalar va 31 mingtasi dissertatsiyalar.

– oliy, o‘rta maxsus va professional ta’lim muassasalarining diplom ma’lumotlari bazasi (diplom.edu.uz) shakllantirilgan. Shuningdek, diplom va uning ilovasi hamda kasbga o‘qitish bo‘yicha sertifikatlarni elektron ko‘rinishda shakllantirish hamda verifikatsiya qilish tizimi yo‘lga qo‘yilgan;

Ma’lumot uchun: 1991-2020-yillar davomida bitiruvchilarga berilgan 1,5 mln. diplom ma’lumotlarining 84 foizi (1,25 mln.) raqamlashtirilgan.

– oliy va professional ta’lim muassasalarida mavjud bo‘sh ish o‘rinlari uchun onlayn hujjat topshirish platformasi (vacancy.edu.uz) ishga tushirilgan.

“Oliy ta’lim jarayonlarini boshqarish” (HEMIS) axborot tizimi respublikaning barcha oliygohlariga joriy etish natijasida talabalar va professor-o‘qituvchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlarning yagona bazasi shakllantirilgan.

HEMIS axborot tizimining talabalar uchun mo‘ljallangan “HEMIS” mobil ilovasi ishlab chiqilib joriy etilgan.

Talabalar va ularning ota-onalari uchun Click, Payme, Zoomrad kabi to‘lov tizimlari orqali to‘lovlarni onlayn amalga oshirish, shuningdek, stipendiya va kontrakt to‘lovi haqidagi ma’lumotlarni onlayn olish imkoniyati yaratilgan.

Ma’lumot uchun: 2023/2024-o‘quv yili davomida qayta o‘qish uchun 174 254 ta, 2024/2025-o‘quv yili uchun 215 433 ta to‘lov-kontrakt hamda 86 365 ta TTJ uchun shartnomalar elektron shakllantirilgan.

Barcha axborot tizimlari Yagona reyestrda (reestr.uz) ro‘yxatga olingan. Bundan tashqari, barcha axborot tizimlari va resurslari uchun texnik topshiriqlar ishlab chiqilgan va ulardan 36 tasi Raqamli texnologiyalar vazirligi, 35 tasi esa Kiberxavfsizlik markazi tomonidan ekspertizasidan o‘tkazilgan.

Yaratilgan barcha axborot tizimlari Raqamli hukumat tizimlariga integratsiya qilingan bo‘lib, ushbu ma’lumotlardan hozirgi kunda 22 ta vazirlik va idoralarda foydalanib kelmoqda.

Jumladan, talabalar va o‘quvchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlar:

Transport vazirligining axborot tizimlariga integratsiya qilinishi natijasida talabalar va o‘quvchilarning temir yo‘l va avia-chiptalarni imtiyozli (mavsumiy

chegirmalar davrida) xarid qilishida “talabalik guvohnomasi”ni qog‘oz ko‘rinishida talab qilishga chek qo‘yilgan;

Soliq qo‘mitasining maxsus platformasiga integratsiya qilinishi natijasida ijara beruvchi va talaba o‘rtasida elektron shartnomalar tuzish hamda ijara beruvchilarning daromad solig‘idan avtomatik ozod qilinishi yo‘lga qo‘yilgan.

VII. Korrupsiyaviy xatti-harakatlar va huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi xabarlar.

Vazirlikning 1006 qisqa raqamli “call senter” va (71) 230-64-64 raqamli “ishonch telefoni” tashkil etilgan bo‘lib, aloqa kanallari orqali kelib tushgan xabarlarning belgilangan tartibda ko‘rib chiqilishi ta‘minlangan. Mavjud aloqa kanallari doimiy ravishda ijtimoiy tarmoqlarda yoritib borilgan.

Hisobot davrida aloqa kanallari orqali xodimlarning korrupsiyaviy xatti-harakatlari, manfaatlar to‘qnashuvi, boshqa korrupsiyaviy qonunbuzarliklar bilan bog‘liq murojaatlar kelib tushmagan. Shu mazmundagi vazirlikka rasmiy kelib tushgan murojaatlardagi vajlarni o‘rganish natijasida, ma‘lumotlar o‘z tasdig‘ini topmagan.

VIII. Monitoring va nazorat.

Vazirlik va tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha belgilangan tartib-taomillar va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qabul qilingan ichki normativ hujjatlar bajarilishi vazirlikning 2024-yil 4-martdagi 58-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tizim tashkilotlari, oliy va professional ta‘lim muassasalarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni tahlil qilish va ularning natijalarini e‘lon qilish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomasi” talablari asosida amalga oshirilgan.

Xususan, vazirlik va uning tizim tashkilotlaridagi korrupsiyaga qarshi talablar va tamoyillarga rioya qilinishi yuzasidan tegishli o‘rganishlar o‘tkazilgan.

Tizim tashkilotlari faoliyatida korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va oldini olish, ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik, qonun buzilishi va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar berish hamda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish choralari ko‘rish uchun mas‘ul shaxslar belgilangan.

IX. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo‘yicha takliflar va tadbirlar rejasi:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalarida halollik siyosatini ta‘minlash, xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish madaniyatini oshirish, shuningdek lavozim (xizmat) majburiyatlarini bajarish chog‘ida korrupsiyaviy harakatlar sodir etilishiga yo‘l qo‘ymaslik, shuningdek Oliy ta‘lim sohasida korrupsiya xavfini kamaytirish maqsadida vazirlik hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi o‘rtasida imzolangan “Oliy ta‘lim sohasida korrupsiya xavfini kamaytirish yuzasidan 2024-2025 yillarga mo‘ljallangan “YO‘L XARITASI” tasdiqlangan. Mazkur yo‘l xaritaga ko‘ra, quyidagilar belgilangan:

- tizimda yuzaga kelayotgan qonunbuzilish holatlari va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni tahlil qilish, sabab va shart-sharoitlarni kollegial tartibda muhokama qilish tartibini yo'lga qo'yish;

- oliy ta'lim muassasalarida korrupsiya holatlarining oldini olish va o'z vaqtida aniqlash maqsadida aholi, jumladan ota-onalar o'rtasida turli shakldagi ijtimoiy so'rovnomalar o'tkazib borish hamda to'plangan ma'lumotlar tahlili asosida tizimda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olish choralari ko'rish;


- oliy ta'lim muassasalari faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish;

- vazirlik huzuridagi Jamoatchilik kengashi samaradorligini oshirish va namunali jamoatchilik kengashiga aylantirish;

- vazirlikning davlat organlari va tashkilotlarida ochiqlik bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarining samaradorligi va natijadorligini baholashga qaratilgan "Ochiqlik indeksi"dagi ko'rsatkichlarini yaxshilash va boshqalar.

Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati bo'yicha qilingan ishlar yuzasidan tayyorlangan ma'lumot axborot tariqasida kiritilmoqda.

**Korrupsiyaga qarshi kurashish
bo'limi boshlig'i**



M.Parmanov

2025-yil "9"-yanvar.